



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

**“SHIRIN VA SHAKAR” DOSTONIDA FONETIK DIALEKTIZMLARNING O‘RNI
(QO‘LLANISHI)**

**THE USE AND FUNCTION OF PHONETIC DIALECTISMS IN THE EPIC “SHIRIN
VA SHAKAR”**

Sunbula HABIBULLAYEVA,
TOSHDOTAU magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/RSLC2573

Annotation. *This article analyzes the linguistic features of the dastan “Shirin and Shakar”, one of the significant examples of Uzbek oral folk literature, with particular attention to the use of phonetic dialectisms in the text. The study highlights the theoretical foundations of phonetic dialectisms and, based on the text of the dastan, identifies such phonetic phenomena as the alternation of vowels and consonants, sound omission, and sound addition, while also explaining their artistic and aesthetic functions. Furthermore, the article reveals the importance of phonetic dialectisms in individualizing the speech of characters, imparting a folkloric spirit to the work, and expressing national color. The results of the research demonstrate that phonetic dialectisms play an important role in ensuring the vividness and naturalness of the language of the dastan.*

Key words: *phonetic dialectism, oral folk literature, language of the dastan, artistic speech, national color, dastan “Shirin and Shakar”.*

O'zbek xalq dostonlari, xususan, “Shirin va Shakar” dostoni o'zbek xalqining jonli so'zlashuv tili, sheva va dialektlarining betakror xususiyatlarini o'zida mujassam etgan yirik og'zaki manbadir. Dostondagi til xususiyatlarini o'rganishda dialektizmlar, ayniqsa, fonetik dialektizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, dialektizmlar adabiy tildan ma'lum bir fonetik, leksik yoki grammatik xususiyatlari bilan farq qiladigan, muayyan hudud aholisi nutqiga xos bo'lgan til birliklaridir.

Ammo olimlarimiz tomonidan dialektizm atamasiga turlicha izohlar berilgan. Xususan, “O'zbek dialektologiyasi” darsligi muallifi Samixon Ashirboyev “Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi” [Ashirboyev S., 2016:76] ga dialektizm deb qaragan.

“Ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab, adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birlikmalari dialektizmlardir”. [Файзуллаев Б., 1977:35]-deb, Fayzullayev o'z maqolasida dialektizmlarga ta'rif berib ketadi.

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida dialektizmlarga ishlatilish hududiga ko'ra chegaralangan til hodisalari sifatida qaraladi. Dialektizm umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisalardir. Shunga ko'ra bular, odatda, biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektning vakillariga, shuningdek, adabiy tilga ham xos bo'lmaydi. [Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш., 1992:144]

Professor Gulardon Bakiyeva dialektizmlarni shunday ta'riflaydi: “Dialektizm – bu til tizimining yashovchanlik belgisi bo'lib, xalq tilining jonli qatlamini tashkil etadi”. [Rahmatullayev Sh., 2010:45] Demak, yuqoridagi fikrlardan dialektizmlar haqida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Dialektizmlar milliy tilimizni boy, tabiiy va jonli qiladi. Asarlarda nafaqat mahalliy koloritini yaratadi, balki xalq ruhiyatini, voqelikni tabiiy holatda tasvirlashga xizmat qiladi, shuningdek, yozuvchi yoki baxshilarning o'zi mansub bo'lgan dialektal hududning lisoniy manzarasini ko'rsatishga ham xizmat qiladi. Xususan, “Shirin va Shakar” dostoni matnida

dialektizmlar leksik-semantik, morfologik va fonetik ko'rinishda namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning, tovush talaffuzi va tovush o'zgarishi bilan bog'liq hodisalarning yuzaga kelishidir. Fonetik hodisalar – nutq oqimida yoki morfemalar tarkibida yuz beradigan turli fonetik o'zgarishlar. [Jomolxonov H., 2013:122] Fonetik dialektizmlar – bu adabiy til talaffuzidan farq qiluvchi, ma'lum bir hudud yoki shevaga xos bo'lgan tovush o'zgarishlari bilan bog'liq til birliklaridir. Bunday hodisalar asosan unlilar yoki undoshlarning almashuvi, qisqarishi, cho'zilishi yoki o'rin almashishi orqali namoyon bo'ladi. Ulardagi emotsionallik leksik dialektizmlarga nisbatan kam bo'lsa-da, lekin mahalliy koloritni berishda, o'sha davr yoki muhitni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanitirishda birdek xizmat qiladi.

Doston fozil Yoldosh o'g'li tomonidan kuylangan bo'lib, dostonda o'zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalariga xos bo'lgan unlilar va undoshlar tizimidagi bir qator fonetik o'zgarishlar faol qo'llanilgan. Shu jumladan, baxshi tomonidan kuylangan dostondagi fonetik dialektizmlar qahramonlar xarakterini ochib berish, asarga milliy va mahalliy ruh bag'ishlash hamda baxshining o'zi mansub bo'lgan dialektal zonaning lisoniy manzarasini ko'rsatishga xizmat qilgan.

*Jallodlardan, to'ram, ko'ngling qabarar,
Otangning farmoni senga shul bo'lar, (D 22-bet)*

Misradagi *qabarmiq* birligi *qavarmiq* fe'li bilan ayni shaklda adabiy tilda jumladan o'rin almashib kelishi mumkin. Dostonda esa *qabarmiq* shakliga duch kelamiz. *Qabarmiq* birligida [b] – undosh tovushi bilan [v] – undosh tovushining so'z o'rtasidagi tovush almashinuvini kuzatishimiz mumkin. “Qavarmiq - ishlash, ishqalanish natijasida qavariq hosil bo'lmoq”.(O'TIL). Ammo ushbu dialektizm misrada ko'chma ma'noda qo'llangan. Ko'ngli *qabarmiq*(ko'chma) – ranjimoq, xafa bo'lmoq, ko'ngli o'ksimoq.(O'TIL). Otasi tomonidan Shirinbekka jallodlardan ko'ngli qabarishi ya'ni o'ksishi, ranjishi haqida izoh berilgan.

*Qayda borsa men ham birga boray deb,
Qo'zim o'lsa, men ham birga o'lay deb,
Nima bo'lsa, taqdirimdan ko'ray deb,
Bu so'z aytib mungliq ketib boradi.(D 28-bet)*

Oxirgi misradagi *mungliq* birligida tovush ortishi hodisasi yuz bergan. Adabiy shakli *mungli* bo'lib, [q] – undosh tovushining ortishi orqali ushbu shevalargagina xos bo'lgan dialektizm qo'llangan. Va misrada onaning farzandi orqasidan g'amgin, mayus ketib borishi tasvirlangan.

*Uchqur bo'lsam qanotimdan qayrilib,
Yura bilmay, yoq-yeridan tayrilib,
Men qo'zimdan tiriklayin ayrilib,(D 35-bet)*

Ikkinchi misrada qo'llangan *tayrilib* birligi fe'lining ravishdosh shakli bo'lib, ushbu dialektizm adabiy tildagi *toymoq, toyrilmoq* fe'lining qipchoq shevasidagi *tayrilmoq* shaklidir. Ushbu matnda bu so'z *azob chekmoq, judo bo'lmoq, yiqilmoq* ma'nolarini ifodalab kelgan.

*Parvo qilma, o'lib ketti ajdahor,
Oshiqini kelib topgandir Shakar! (D 65-bet)*

Satrdagi qo'llangan *ajdahor* fonetik dialektizmi tovush almashinishi ya'ni tilshunoslikdagi metateza hodisasi orqali hosil bo'lgan. Shevashunos N.Nazarov lug'atida leksemaning *aydahar* dialektal varianti ham keltirilgan: “*Aydahar – forsiy so'z. Ulkan ilon ajdahor. G'arding ichiga kakulikning balasiini ushlaymiz dep baribek, katte aydahar ko'rdik, fishshillab bizdi quvibedi qashtiq*”! [Hazapov H., 2010:10] Ayni shu so'z adabiy tilda *ajda(r)ho* tarzida qo'llaniladi va sheva varianti bilan [h], [o], [r] – tovushlari o'rin almashini orqali farqlanishini ko'rishimiz mumkin. “*Ajda(r)ho - afsonaviy katta ilon*”, mifologik obraz (O'TIL).

Shevashunos olim X.Doniyorov monografiyasida mazkur birlikni shunday sharhlaydi: “Sharqiy gruppaga qipchoq shevalarida adabiy tilimizga shahar shevalariga va hatto, g'arbiy gruppaga qipchoq shevalariga nisbatan arabcha, xususan, forsha va tojikcha so'zlar juda kam qo'llanadi. Ulardan borlari ham ko'pincha kuchli fonetik o'zgarishlarga uchragan holda qo'llanadi. Masalan,

adabiy tilimizdagi aslida arabcha yoki fors-tojikcha bo'lgan ko'pgina so'zlar sharqiy gruppaga qipchoq shevalarida quyidagi fonetik o'zgarishlar bilan qo'llaniladi: *aydahar* – *ajdahor*. Bu holni biz, birinchidan qipchoq sheva vakillarining xususan, arab va fors tillari vakillari bilan nisbatan kam munosabatda bo'lganliklari, bu sheva vakillarining turmush sharoitlarining o'ziga xosligi (qishloq joyda yashab kelganliklari, ko'proq chorva bilan shug'ullanganliklari va hunarmandchilik bilan nisbatan kam shug'ullanganliklari) kitobiy terminlarni kam qo'llaganliklari va shu kabi o'ziga xos tomonlar bilan izohlaymiz" [Дониёров Х., 1979:78].

*Qaysi yo 'ldan kelsang, shundan bor endi,
O'ldiraman Shirin, Shakar o'g'limni,
Vali bo'lsang bilganingni qil endi,
O'tirma, joyingdan tur, ketgin endi,
Gapirmagin, mazgilingga bor endi.*

Oxirgi satrda qo'llangan *mazgil* birligi adabiy tilda manzil tarzida qo'llaniladi. Ushbu so'zdagi [n] - undosh tovushining tushishi va z va i tovushlarining o'rtasida [g] - undosh tovushining ortishi orqali fonetik dialektizm hosil bo'lgan. Shevashunos N.Nazarov lug'atida: "Mazgil, mezigil, manzil – arabcha so'z. 1. Joy, makon, manzil. Erterek jo'ne, qaranga tushmesten baratqat manzilinhe jet. 2. Vaqt. Mazgili kese qavun baldog'idan uziledi!" [Назаров Н., 2010:187] Yuqoridagi misollardan xalq shevalarida ham *manzil* ham *mazgil* shakllari faol qo'llanilishi mumkin ekanligiga guvoh bo'lamiz.

*Quloq sop, eshitgin aytgan nolaga,
Bunda ko'nar haqdan kelgan choraga,
Zulm qilma Shirin, Shakar to'raga, (D 29-bet)*

Birinci qatordagi *quloq sop eshitgin* birikmasida kelgan *sop*, ya'ni *solmoq* fe'lidan [l] – undoshi tushgan, aslida -ib ravishdosh qo'shimchasi qo'shilishi kerak bo'lgan o'rinda tovush tushishi hisobiga -b ravishdosh qo'shimchasi qo'shilgan va uning o'rnida -p dialektal shakli lahjaviylashganligini ko'rsatilgan. *Quloq sop eshitgin* – yaxshilab, diqqat bilan tinglagin ma'nosini ifodalagan.

Yana quyidagi dastlabki satrda ham yuqoridagi holatga o'xshash dialektizm uchraydi:

*Beparvo bo'p mast uyquda yotmagin,
G'aflatda qop bu dunyodan o'tmagin.
Mard bo'lib nega bu yerga kelasan,
Dushman yaqin keldi bunday bo'lasan. (D 76-bet)*

Ushbu misralarada *beparvo bo'lmoq, g'aflatda qolmoq* birliklarini dialektal shakliga guvoh bo'lishimiz mumkin. Birliklarning ko'makchi fe'l qismida [l]- undoshi tushgan, bo'lib, qolib so'zlariga -ib ravishdosh qo'shimchasi qo'shilgan. Fe'lda [l] -undosh tovushi fonetik hodisaga uchragani uchun -ib ravishdosh qo'shimchasi o'rnida -b shakli kelgan. -b ravishdosh qo'shimchasi qipchoq shevasiga xos -p tarzida qo'llangan. Bu holat esa birlikning fonetik dialektizmga aylanishiga sabab bo'lgan.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Shirin va Shakar" dostoni tilida fonetik dialektizmlar faol qo'llanilgan bo'lib, ular dostonning xalqona va tabiiy ruhini yuzaga chiqarishda muhim o'rin egallaydi. Dostonda uchraydigan *qabarmog' // mungliq // tayrilib // ajdahor // mazgil // quloq sop* kabi birliklar orqali baxshi nutqida qipchoq lahjasiga xos fonetik xususiyatlar namoyon bo'lganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi hamda metateza hodisalari doston tilining jonli va obrazli chiqishiga xizmat qilgan. Shuningdek, fonetik dialektizmlar faqat shevaga oid til hodisasi sifatida emas, balki qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini va voqealarning ta'sirchanligini ifodalovchi badiiy vosita sifatida ham qo'llangan. Masalan, *mungliq, tayrilib* kabi birliklar oddiy adabiy variantiga nisbatan kuchliroq emotsional bo'yoqdorlikni yuzaga chiqargan. Bu esa baxshi nutqining xalq tiliga yaqinligini va dostonning og'zaki ijod mahsuli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, "Shirin va Shakar" dostoni tilidagi fonetik dialektizmlar nafaqat shevaga xos fonetik o'zgarishlarni aks ettiradi, balki asarning milliy koloritini yaratish, badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirish hamda

xalqona nutqni tabiiy holda ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan doston tilidagi fonetik dialektizmlarni o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi va folklor tilini tadqiq etishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 174 b.
2. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси (Шарқий группа қипчоқ шеваларининг материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1979. – 160 б.
3. Jomolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 260b.
4. Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг адабиётдаги ўрни. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1977. 4-сон – Б. 35
5. Назаров Н. Лақайлар: диалектология ва фразеология. – Тошкент. 2010. – 468б.
6. Rahmatullayev Sh. Til tizimi va xalq tafakkuri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
7. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.144
8. Shirin va Shakar: o‘zbek xalq dostoni //aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi: Abdurahmon mulla Toji o‘g‘li , Mahmud Zarifoylar. – Toshkent: Oltin qalam nashriyoti, 2023. – 191 b.

